

ISTIQLOL YILLARIDA G'AFUR G'ULOM IJODI VA SHAXSIGA BO'LGAN EHTIROM

Ilimbayev Sardor

Toshkent davlat yuridik universiteti, Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

Telefon: +998(33)1601801

ilimbayev1801@gmail.com

Annotatsiya: Istiqlol yillarida erkin fikr taraqqiyoti, adabiyotshunoslik va tanqidchilik rivoji uchun keng keng imkoniyatlar yaratildi. Bu hol adabiyot namoyondalarining ijodiy merosi tiklanishiga va ommaga tatbiq etilishiga yo'l ochdi. Jumladan, G'afur G'ulom shaxsi va ijodiga bo'lgan munosabatni ham keskin o'zgardi. Uning ijodiy merosi ildizlari hamda mohiyatiga tobora chuqurroq kirib borildi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, haykal, xiyobon, konferensiya, hujjatli film, samimiy xotiralar, badiiy mahorat, strategiya.

Mustaqillik yillarida G'afur G'ulom xotirasi va merosiga katta diqqat-e'tibor qaratilmoqda. 2003-yilda adib tavalludining 100 yilligi respublikamiz miqyosida keng nishonlandi. Toshkent shahridagi istirohat bog'laridan biriga uning nomi berilib, muazzam haykali o'rnatildi. G'afur G'ulom qissa va hikoyalari asosida qator spektakllar, badiiy va videofilmlar yaratildi. Uning nomi metro bekatini, ko'plab ko'chalar va xiyobonlarni bezab turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2000-yilda G'afur G'ulomga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan G'afur G'ulom tavalludining yuz yilligini munosib nishonlash to'g'risida maxsus qaror qabul qilinishi va bu san'aning keng nishonlanishi, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Toshkent shahrida shoir haykali ochilishiga bag'ishlangan marosimda aytgan quyidagi so'zlari ijodkorga bo'lgan cheksiz ehtirom nishonasi bo'ldi: "...G'afur G'ulom shaxsi, xotirasi va merosi haqida gapirganda, biz bu ulug' insonni, avvalo, keng, tom ma'noda xalq shoiri, deb qiyos etamiz, uning o'lmas nomi va so'nmas ijodi oldida bosh egamiz".

Yuqoridagi qarorga asosan 2003-yilda yurtimizning deyarli barcha hududlarida bu qutlug' sanaga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlar bo'lib o'tdi. Ularda o'qilgan ma'ruzalarning matnlari chop etilib, ilmiy-adabiy jamoatchilik va keng kitobxonlarga taqdim etildi. "G'afur G'ulom zamondoshlari xotirasida" 15 kitobi O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Alvido ustoz" marsiyasi bilan ochiladi. To'plamdan O'zbekiston xalq shoirlari: Sobir Abdulla, Zulfiya, Mirtemir, Ramz Bobojon; O'zbekiston qahramonlari: Said Ahmad, Erkin Vohidov, Ozod SHarafiddinov; O'zbekiston xalq yozuvchilari: Hamid G'ulom, Mirmuhsin, Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimov; O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimlari: Vahob Ro'zimatov, Maqsud Qoriev; O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Omon Muxtor, Qozog'iston xalq yozuvchisi Sobit Muqonov, tatar shoiri Samad Shokir, yozuvchi Jonrid Abdullaxonov hamda G'afur G'ulomning rafiqasi Muharram G'ulomovalarning samimiy xotiralarini o'rin olgan. Oybek, Abdulla Qahhor, Komil Yashin, Mirzo Tursunzoda, Sharof Rashidov, Asqad Muxtor, Nikolay Tixonov, Konstantin Simonov, Abdulqosim Lohutiy, Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatovlarning G'afur G'ulom shaxsi, iqtidori, salohiyati, badiiy mahorati haqidagi haqli e'tiroflari kitobni ziynatlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarga mo'ljallangan strategiyasi adabiyot sohasida ham keng islohotlar davrini boshlab berdi. Yurtboshimizning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigida qator adiblar, shu jumladan, G'afur G'ulom shaxsini ham tilga oladi. Prezidentimizning "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi" deb aytgan so'zlari G'afur G'ulom

va boshqa buyuk adiblar ijodiga e'tibor yanada oshishiga sababchi bo'ldi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, G'afur G'ulom hayoti va ijodini o'rganish, faoliyatini yoritish, ilmiy tadqiq qilish hamda targ'ib etish yo'nalishida izlanish olib borayotgan, alohida faollik ko'rsatgan Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchi va talabalarni rag'batlantirish maqsadida maxsus stipendiya va ko'krak nishoni ta'sis etilgani ahamiyatga molikdir. Shuningdek, mazkur universitet va Kinomatografiya hamkorligida o'zbek yozuvchisi G'afur G'ulom hayoti va ijodiga bag'ishlab suratga olinga "Men o'zbek shoiriman" nomli hujjatli film suratga olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. G'. G'ulom. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. [G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 10-jild. Tarjimalar](#)
3. G'afur G'ulom. Shum bola qissasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. – T.: Fan, 1966 – B. 50
5. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 6 tom. – T.: Fan, 1986
6. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006
7. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
8. G'afur G'ulom zamondoshlari xotirasida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2003

Internet web-saytlar:

1. www.tadqiqot.uz
2. www.ziyo.net
3. www.arboblar.uz
4. www.tafakkur.net
5. <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/adabiyot/g-afur-g-ulom>
6. <https://ziyo.edu.uz>